

МАКТАБГАЧА YOSHDAKI BOLALARGA CHET TILLARNI

O'RGATISHNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

Buxoro viloyat Qorako'l tunani

24-DMTT direktori

Nazarova Husniya Nasriddinovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimdag'i, tarbiyalanuvchilarni chet tillarni, xususan, ingliz va rus tillariga o'qitishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье говорится о существующих проблемах в системе дошкольного образования, преподавании иностранных языков, особенно английского и русского, и их решениях.

Abstract: This article talks about the existing problems in the preschool education system, the teaching of foreign languages, especially English and Russian, and their solutions.

Kalit so'zlar: Metodika, xorijiy tillar, tarbiyalanuvchilar, talaffuz me'yirlari, predmetlar, multimedia, didaktik materiallar, samarali ta'lim.

Ключевые слова: Методика, иностранные языки, дети, стандарты произношения, предметы, мультимедиа, дидактические материалы, эффективное обучение.

Key words: Methodology, foreign languages, children, pronunciation standards, subjects, multimedia, didactic materials, effective education.

Bolani yoshlik chog'idan boshlab ingiliz tiliga bo'lgan qiziqishlarini oshirish borish kerak, uni xato bo'lsada gapirishga majbur qilish kerak, ana shundagina tarbiyalanayotgan bola o'z oldidagi to'siqlarni yengib o'tib, qo'rmasdan gapira oladi. Agarda biz chet tili darsini dars emas, balki o'yin shakliga keltirsak kichik yoshdagi bolalarni qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birgalikda ularning aktivlik darajasi ham o'sib boradi.

Qishloq joylardagi tarbiyalanuvchilar odatda ingliz tili muhitidan ancha uzoq bo‘lgan sharoitda o‘sishadi va bolalarning fikrlashi mavhum shaklda qolaveradi, bolalarning yangi bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni doimo hissiyotlarga tayangan holda kechadi. Shuning uchun, bog‘cha yoshidagi bolalarga ingliz tili o‘qituvchilari o‘qitishda oson metodikalar orqali, arbiyalanuvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o‘quv qo‘llanmalaridan to‘liq foydalanishadi. “Banana” va “apple” kabi so‘zlarni o‘qitishda arbiyalanuvchilarga banan va olma kabi mevalarni ko‘rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so‘zlarni ham o‘rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o‘quv mashg’ulotlarini tashkil qilish uchun xonadagi narsalar orqali ularni chet tilida qo‘llanilishini o‘rgatib borishadi.

Albatta, o‘qitish mobaynida buyumlardan foydalanishda arbiyalanuvchilarning metodikasi katta ro‘l o‘ynaydi. Misol uchun, tegishli so‘zlarni o‘rgatayotganda, siz avvalo buyumni bolaga ko‘rsatib uni gapirishga undaysiz, o‘quvchilar so‘zlarni talaffuz qiladi va ular talaffuz qilgan so‘zni mustahkamlash uchun kartochkalardagi rasmlardan foydalanib yana bir bor yangi so‘zni takror talaffuz qildiriladi. So‘zlarni o‘qitishda arbiyalanuvchilar rasm mazmunini belgilab olishlari va arbiyalanuvchilar e’tiborini jalg qilish uchun tarbiyachi ular bilan birgalikda so‘zlarni talaffuz qilib doskaga suratini chizish orqali ularning e’tiborini tortishlari mumkin bo‘ladi.

Misol uchun chet elda: Hozirgi kunda Xitoydagи barcha bog‘chalar multimedia qurilmalari bilan ta’minlangan. Bolalar uchun ingliz tili qo‘shiqlaridan tortib she’r va hikoyalar, videoroliklar orqali o‘rgatib kelinmoqda. Bu zerkilarli til darslarini qiziqlarli kunlik o‘yinga aylantiradi. Xitoy bog‘chalarida bir gruhda 10 ga yaqin tarbiyalanuvchi bo‘lib, tarbiyachi muntazam har bir bolani psixologiyasidan kelib chiqqan holda ularga tarbiya usuli qo‘llaniladi. Bu tarbiyachidan faqatgina tarbiyachi bo‘lib qolishni emas bir vaqtning o‘zida rassom, musiqachi, chet tili o‘qtuvchisi, va yaxshigina psixolog ona bo‘lishni ham talab qiladi. Albatta hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda Xitoyliklar yosh avlodlarga bu borada juda katta qulayliklarni yaratib berishmoqda.

Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasi professional ta’limning ajralmas qismlaridan biri bo‘lib bormoqda. Bu maktabgacha ta’lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo‘q. Yoshlar ta’limi davomida xorijiy tillarni o‘rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Hozirgi kunda maktabgacha ta’limga etibor berish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirish demakdir. Yoshlarimiz zamonaviy va har taraflama yetuk malaka ega kadr bo‘lib yetishishlari uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

Maktabgacha ta’limning maqsadi- bolani maktabga tayyorlash, o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, uning qobiliyatlarini namoyon qilshika ko‘mak berishdir. Shularni inobatga olgan holda, “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora- tadbirlari to‘g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va shu bilan birga “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” tasdiqlandi. Bu hujjatlarda maktabgacha ta’lim tizimi tarmog’ini yanada kengaytirish, bollarni o‘qitishning zamonaviy hamda samarali metodikalaridan foydalanish va maktabgacha ta’lim muassalarini malakali kadrlar bilan ta’minalash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash kabi masalalar aks etgan. Xususan, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida – Til bilgan el biladi deb xalqni til o‘rganishga, dunyo qarashini boyitishga da’vat etgan. Maktabgacha ta’lim jarayonida xorijiy tillarni o‘qitishning ijobjiy jihatlari ham talaygina. Bu yoshdagি bolalar o‘zlarining dunyoqarashlari shakllanayotgan davrda bo‘lib, chet tillarini o‘rgatish bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ularni ruhlantirib yangi bilimlarni o‘rganishga undaydi. Nafaqat maktabgacha ta’limda balki boshlang‘ich ta’limda ham xorijiy tillarni o‘qitish juda muhim. Ya’ni, xorijiy tillarni o‘qitishdagi asosiy fundament maktabgacha ta’lim jarayonida shakllanadi. Shu sababli bu davrlar tarbiyalanuvchilarga chet tillarini o‘qitishda samarali metodlar va kelgusida yaxshi natijalar talab qiladi. Shunday ekan maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘qitishda bir nechta muammolar ham mavjud. Keling bu muammolar va uning yechimlari bilan tanishib olamiz. Avvalo oldimizda uchraydigan muammo bu ilk maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarni xorijiy tillarga qiziqtirish va ularni diqqatini jamlash.

Tarbiyalanuvchilarning idroklari tezkor bo‘lib, ular barcha atrofdagi yuz berayotgan jarayonlarni diqqat bilan kuzatishadi va his qilib turishadi. Hamda, ular bu jarayonlardan tez zerikadi. Yana bir tur tarbiyalanuvchilarga jarayonlarni ko‘rib his qilib tursa ham, bu jarayonlarni qabul qilmaydi. Bu borada tarbiyachilar o‘rgatilayotgan mavzuga doir rangli kartochkalar, sifati yuqori bo‘lgan mavzuga doir predmetlar aks etgan rasmlni ko‘rgazmalar hamda eng muhimi davr talabi bo‘lmish AKT vositalari va multimedialardan foydalanishlari lozim. Navbatdagi masala bu tarbiyalanuvchilar psixologiyasiga ham etiborli bo‘lish. Har bir tarbiyalanuvchilaring o‘zini psixikasi bo‘ladi. Pedagoglar mashg‘ulotlar jarayonida bu narsalarni xisobga olgan holda tarbiyalanuvchilar bilan suhbatlashib o‘tmog‘i ham lozim. Masalan tarbiyalanuvchilarning ismini, yoshini yoki qiziqishlarini so‘rash yaxshi usuldir. Bu tarbiyalanuvchilarda e’tiborga tushganlik hissini uyg‘otadi. Umumiy qilib aytganda, aslida chet tilini o‘rganishni bolaning juda ham yosh davirlardan boshlagan ma’qul hisoblanadi. Kichik yoshdagagi bolalarning miyya faoliyati to‘xtovsiz o‘sish rivojlanishda davom etayotgani uchun ular miyya faoliyati to‘liq shakllanib bo‘lgan, katta shaxslarga nisbatan yangi ma’lumotni ancha tezroq qabul qilish qobiliyatiga egadirlar. Ushbu o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda darsni rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Masalan, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga chet tilini o‘qitishda asosan o‘yin, rasmlar, qo‘sish va she’rlardan, multfillardan foydalanish samarali usul hisoblanadi. Chunki ulardagagi asosiy tushuncha miyasida rasqli holda tasvirlanadi. Bu esa o‘z navbatida bizdan barcha o‘rgatiladigan narsalarni shunga ko‘ra tasvirlashni talab etadi.

Misol uchun, Ingliz yoki rus tilidagi tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan multfilmlar va qo‘shiqlardan foydalanilsa tarbiyalanuvchilar multfilmdagi harakat so‘zlarini ma’nosini bilmasa ham undagi yuz berayotgan voqeliklardan anglab oladi. Musiqa va qo‘shiqlarga kelsak biz musiqlardagi chet tili so‘zlarini tarbiyalanuvchilarga yoki ular bilan birgalikda harakatlanib raqsga tushgan holatda

ifodalarasak tarbiyalanuvchilar yangi so‘zni harakatlar orqali tushunish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Gapirish masalasiga to‘xtalsak tarbiyalanuvchilar garchi noto‘g‘ri gapirsa ham gapirsin. Yuqorida aytganimizdek noto‘g‘ri gapiryapsan deyish xato. Gapirishni shakllantirish uchun kichik-kichik dialoglardan sahna ko‘rinishi sifatida foydalanish samarali natija beradi. Yana bu borada “bu nima? U nima?” metodlarini ishlatish ham kerak. Tarbiyalanuvchilarga predmetlarning rasmi ekran orqali hamda plakatlarda ko‘rsatiladi. Bu metodika tarbiyalanuvchilarni yod olgan so‘zlarini mustahkamlashga yordam beradi. Eng asosiysi maktabgacha ta’lim yoshidagi tarbiyalanuvchilarga ingliz va rus tillarini o‘rgatishda har-xil o‘yin tarzidagi metodikalardan foydalanish eng zamonaviy usullardan hisoblanadi. Bu uslubda sinfdagi deyarli barcha tarbiyalanuvchilar ishtirok etishga qiziqish bildiradilar.

Maktabgacha ta’limda tahsil olayotgan bolalarning psixikasi qizqish va yoqtirish kategoriyasiga asoslangan. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarga juda ham qiziqishadi va ko‘p e’tibor berishadi. Buni yosh bolalarning chiroyli ustozlarni, xushmuomala pedagoglarni yoqtirishidan ham yaqqol sezish mumkin. Shuning uchun ularga uzatilayotgan ma’lumotlar, albatta, ularning qiziqishini inobatga olgan holda yetkazilishi va rangli materiallar, rasmlи qo‘llanmalar bevosita ta’lim jarayonida qo‘llanishi lozim. Bu degani maktabgacha ta’lim tashkilotidagi yoshlarni o‘qitish metodikasi, avvalo, ularning qiziqishlariga bog’liq.



Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki,
maktabgacha ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘rgatish, ushbu davrdagi tarbiyalanuvchilarning kelajakda chet tilidagi bilimlarini eng asosiy fundamenti ekanligini tan olgan holda biz bu davrdagi tarbiyalanuvchilarga xorijiy tillarni o‘qitishning zamonaviy usullaridan foydalanmog‘imiz darkor. Darhaqiqat, maktabgacha yoshidagi tarbiyalanuvchilarning miyya faoliyati to‘xtovsiz o‘sish rivojlanishda davom etayotganligi tufayli biz ularga

xorijiy tillarni o‘rgatishning innovatsion va qulay usullari ustida ishlamog‘imiz kerak. Biz foydalanishimiz mumkin bo‘lgan metodikalar ham tarbiyalanuvchilarning yoshiga qarab tanlash joiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o'qitishning-zamonaviy usullari](https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o'qitishning-zamonaviy_usullari)
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-oqitishning-samarali-usullarinemis-tili-misolida>
3. Urmonovich N. O. MANGOSTEEN NUTRITIONAL PRICE AND FUNCTIONAL PROPERTIES //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 14. – №.
4. Google.ru saytlari
5. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/umumii-urta-talim/5141.htm>
6. Usmonova, U. (2021). MAKTABGACHA TA’LIMDA BOLALARNI ILK YOSHIDA XORIJIY TILLARNI O’RGATISHDA TA’LIMIY O’YINLARNINNG AHAMIYATI: BAHOLASH. *Maktabgacha ta’lim jurnali*,